

Barcha harakatlarimiz aholini ish bilan ta'minlash, iqtisodiyotimizni rivojlantirishga qaratilgan



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 12 mart kuni Navoiy viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari barcha hududlar kabi Navoiy viloyatiga ham bir necha bor tashrif buyurib, iqtisodiyot tarmoqlarini kengaytirish, aholi farovonligini oshirish masalasiga doimiy e'tibor qaratib kelmoqda. 2017 va 2018 yillardagi tashriflar chog'ida belgilangan chora-tadbirlar natijasida viloyatda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Bu galgi tashrif Nurota tumanidagi "Marmarobod" davlat unitar korxonasi faoliyati bilan tanishishdan boshlandi.

Prezidentimiz sanoatda bozor talablarini o'rganish, xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish g'oyat muhim ekanligini doim ta'kidlaydi. Zero, bu tovarning sifatini, korxonaning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Keyingi yillarda ham ichki, ham tashqi bozorda pardozbop toshlarga talab oshmoqda. Nurota tumanida esa bunday toshlarning katta zaxirasi mavjud.

Prezidentimizning avvalgi tashrifi chog'ida berilgan topshiriqqa muvofiq, "Marmarobod" davlat unitar korxonasi tashkil etilib, 10 milliard so'm evaziga 6 gektar dasht yerda zamonaviy korxona ishga tushirildi. Xorijdan 655,5 ming dollarlik texnologik uskunalar keltirilib, yiliga 24 ming kvadrat metr granit toshni qayta ishlash imkoniyati yaratildi. Qirg kishi doimiy ish bilan ta'minlandi.

Bular – loyihaning birinchi bosqichi.

Ikkinchi bosqichda tosh qazib olish va uni qayta ishlashni klaster usulida yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Loyiha quvvatini yiliga 3 million kvadrat metrga yetkazish, mahsulot turini ko'paytirish va eksportga yo'naltirish ko'zda tutilgan. Buning natijasida yillik ishlab chiqarish hajmi 250 milliard so'm, eksport hajmi 10 million dollarga yetadi, bir yarim mingga yaqin ish o'rni yaratiladi.

Davlatimiz rahbari korxona mahsulotlarini ko'zdan kechirar ekan, ular xorijiy

muqobillaridan qolishmasligini qayd etdi. Samarali texnologiyalarni qo'llash, transport xarajatlarini arzonlashtirish hisobidan mahsulot tannarxini kamaytirish, shu orqali tashqi bozorga chiqish zarurligini ta'kidladi. Toshni jahon standartlari darajasida chuqur qayta ishlash uchun malakali kadrlar tayyorlash, yoshlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Shu yerda "National stone" O'zbekiston – Kanada qo'shma korxonasi mahsulotlari ham namoyish etildi. Olmaliqda faoliyat yuritayotgan bu zavodda tosh kukunini zichlash orqali turli rang va o'lchamdagi plitalar ishlab chiqarilmoqda. Ulardan binolarning tashqi qismi va yo'laklarini pardoqlash, ofislar, oshxona, yuvinish xonasi va boshqa joylarni jihozlashda keng foydalanilmoqda. Bundan tashqari, korxonada tayyorlanayotgan tosh kukuni qurilishda, kvars toshlari suv tozalashda qo'llanilmoqda.

"National stone" "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasida yana bir shunday korxona ochishni rejalashtirmoqda. Bu reja amalga oshsa, yiliga 75 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish, 60 kishini ish bilan ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Prezident ushbu rejani ma'qullab, korxona rivoji uchun barcha yordam ko'rsatilishini ta'kidladi. Qurilishlarda yurtimizda ishlab chiqarilgan materiallardan foydalanish, mahalliy tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhimligini qayd etdi.

Navoiy viloyatida 2019-2020 yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish, xitoylik investorlar bilan hamkorlikda marmardan sanoat haykaltaroshligini tashkil etish, Nurota tumani G'azg'on shaharchasini Bosh reja asosida rivojlantirish loyihalari taqdimoti ham o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari mazkur hudud infratuzilmasi va sanoatni rivojlantirish uchun bu yerga temir yo'l liniyasi tortish taklifini bildirdi.

Prezidentimiz 2017 yili Navoiy viloyatiga tashrifi chog'ida Nurota tumanidagi "Chashma" ziyoratgohi atrofini kengaytirish va obodonlashtirish, zamonaviy mehmonxona qurish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi.

O'tgan yili bu ishlar to'la amalga oshirilib, ziyoratgoh hududi o'zgacha chiroy ochdi. 50 o'rinli "Nurota" mehmonxonasi foydalanishga topshirildi. Manzarali buta va daraxtlar ekilib, favvora bunyod etildi. Ziyoratchilar hordiq chiqarishi uchun so'ri va o'rindiqlar o'rnatildi. Muzey binosi, Hunarmandchilik markazini barpo etish ishlari davom etmoqda.

Shavkat Mirziyoyev tarixiy qadamjoni ziyorat qildi, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi.

"Chilustun" va "Panjvaqta" masjidlari, Abul Hasan Nuriy maqbarasini rekonstruksiya

qilish rejalashtirilgan.

Shu boradagi loyiha takliflari bilan tanishar ekan, Prezidentimiz ziyoratchi va chet ellik sayyohlar uchun qulayliklarni oshirish, talab yuqoriligini inobatga olib yana 80 o'rinli mehmonxona qurish, sayyohlarga ko'rsatiladigan xizmat turlarini ko'paytirib, aholini qo'shimcha daromad bilan ta'minlash zarurligini ta'kidladi.

Quduqlar qazish va tomchilatib sug'orishni yo'lga qo'yish orqali Nurota tumanidagi lalmi yerlardan samarali foydalanish, dukkakli ekinlar yetishtirish va chorvachilikni kengaytirish, parrandachilik-g'allachilik klasteri tashkil etish rejalari muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyev ushbu barcha chora-tadbirlarni qamrab oladigan Nurota tumanini kompleks rivojlantirish bo'yicha hukumat qarorini ishlab chiqish yuzasidan topshiriq berdi.

Aholi vakillari – nuroniylar, tadbirkorlar, xotin-qizlar va yoshlar bilan suhbatda shu kabi rejalar, Navoiy viloyati va mamlakatimizdagi o'zgarishlar haqida so'z bordi.

Prezidentimiz Nurota tumanida ham to'planib qolgan masalalar bosqichma-bosqich hal etilayotgani, ushbu tashrif chog'ida yana ulkan rejalar belgilanishini qayd etdi.

Odamlar bizga ishonib, ertangi kunga umid bilan qarayapti. Bu ishonchni har bir rahbar yuragidan o'tkazib, yangicha dunyoqarash bilan ishlashi, xalqqa xizmat qilishi kerak. Eng muhim masala – ish joylari. Hamma harakatlarimiz aholini ish bilan ta'minlash, iqtisodiyotimizni rivojlantirishga qaratilgan, dedi davlatimiz rahbari.

Navoiy issiqlik elektr stansiyasi yuqori darajada sanoatlashgan va unga tutash mintaqalardagi iste'molchilarni elektr va issiqlik energiyasi bilan ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Yirik sanoat korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyati va aholini yanada ishonchli elektr energiyasi bilan ta'minlash ushbu stansiyada amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalariga bevosita bog'liq.

Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 28 mart kuni Navoiy viloyatiga tashrifi chog'ida Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bo'lib, ikkinchi bug'-gaz qurilmasi poydevoriga tamal toshi qo'ygan edi.

Umumiy qiymati 432 million AQSH dollariga teng ushbu inshootning quvvati 450 megavatt. Qurilish "Mitsubishi Corporation and MHPS" konsorsiumi va Turkiyaning "Calik Enerji" kompaniyasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

IESda ishga tushirilgan birinchi loyihadan farqli ravishda ikkinchi bug'-gaz qurilmasida

jami 200 gigakaloriya (Gkal) issiqlik energiyasi ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Bugungi kunda loyihaning bug' turbina qurilmasida sinov-sozlash ishlari olib borilmoqda.

Prezidentimiz bug'-gaz qurilmasi gaz turbinasining ishlash jarayonini ko'zdan kechirdi.

An'anaviy elektr stansiyalarining foydali ish koeffitsientini oshirish yo'llarini izlash butun dunyo texnologlari e'tiboridagi masala. Bug'-gaz qurilmalari ushbu muammoning zamonaviy yechimidir. Issiqlik elektr stansiyalarining foydali ish koeffitsienti odatda 40 foizni tashkil etadi. Navoiy IESning birinchi bug'-gaz qurilmasida bu ko'rsatkich 57 foiz bo'lsa, ikkinchisida 61 foizga teng.

Bug'-gaz qurilmasi to'liq tayyor holda joriy yil sentabr oyida ishga tushiriladi.

Davlatimiz rahbari e'tiboriga loyiha amalga oshirilishi tufayli erishiladigan natijalar va bug'-gaz turbinasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari haqidagi taqdimotlar havola qilindi.

Bug'-gaz qurilmasi ishga tushirilishi natijasida yiliga 3 milliard 454 million kilovatt-soat elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, loyiha samarasida 1 kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun shartli yoqilg'i sarfi kamayishi hisobidan yiliga o'rtacha 829 million kub metr tabiiy gaz tejraladi.

Mamlakatimiz energetika tizimida 2025 yilgacha yana bir qator zamonaviy bug'-gaz qurilmalari barpo etish rejalashtirilmoqda. Bu, o'z navbatida, ming nafardan ortiq xizmat ko'rsatuvchi yuqori malakali mutaxassis tayyorlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Prezidentimiz ushbu ehtiyojni ta'minlash maqsadida Navoiy IES bazasida bug'-gaz qurilmalari uchun xodimlar tayyorlaydigan o'quv markazi tashkil etish bo'yicha topshiriq bergan edi. Korxonada Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi – JICA moliyaviy ko'magida o'quv markazi tashkil etildi. Hozirga qadar bu yerda 166 mutaxassis tayyorgarlikdan o'tdi.

Davlatimiz rahbari korxona ishchilari va xorijlik investorlar bilan suhbatlashdi.

Energetika tizimida amalga oshirilayotgan bunday yirik investitsiya loyihalari mavjud energetika quvvatlarini oshirish, eng muhimi, iste'molchilarni uzluksiz energiya manbai bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish, hududlar infratuzilmasini tubdan yaxshilashga zamin yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi esa yoqilg'i sarf-xarajati va atrof-muhitga chiqarilayotgan zararni kamaytirish imkonini beradi.

Prezidentimiz "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatiga ham bordi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin tutuvchi ushbu korxonada uchta yirik investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Shavkat Mirziyoyev 2018 yilda mazkur korxonada bo'lib, bu yerda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari bilan tanishgan va ularni o'z vaqtida, sifatli yakunlash bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar bergan edi.

Ma'lumki, "Navoiyazot" korxonasi 1964 yilda ishga tushirilgan. Bu yerda qishloq xo'jaligi, neft-gaz tarmog'i, energetika va tog'-kon sanoati ehtiyoji uchun 70 dan ortiq turdagimahsulot ishlab chiqariladi. Vaqt o'tishi bilan texnologik uskuna hamda qurilmalar jismonan va ma'nan eskirdi, ko'p miqdorda elektr energiyasi va boshqa tabiiy resurslarni sarf qilish evaziga mahsulot ishlab chiqarib kelinayotgan edi. Shu bois, korxonada bosqichma-bosqich modernizatsiya ishlari amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda jamiyat hududida uchta yirik investitsiya loyihasi – Polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol, Ammiak va karbamid hamda Azot kislotasi ishlab chiqarish korxonalari qurilishi qizg'in davom etmoqda. Bunyod etilayotgan ushbu korxonalarga zamonaviy, tejamkor texnologik uskunalar o'rnatiladi.

Polivinilxlorid elektr o'tkazgich va kabellarni izolyatsiya qilish, listlar, quvurlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Shuningdek, kiyim va aksessuarlar ishlab chiqarishda undan keng foydalaniladi. Yuviladigan gulqog'ozlar namiqmasligi uchun PVXdan tayyorlangan plyonka bilan qoplanadi. Bu mahsulot boshqa ko'plab sohalarda ham qo'llaniladi.

Davlatimiz rahbari ushbu yangi obyektlardagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, quruvchilar, xorijlik investorlar bilan muloqot qildi.

Polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish loyihasining umumiy qiymati 500 million AQSH dollaridan oshadi. Qurilishni Xitoyning "China CAMC Engineering CO. LTD" va "HQC (Shanghai)" kompaniyalari konsorsiumi hamda yurtimiz mutaxassislari amalga oshirmoqda.

Korxona foydalanishga topshirilgach, yiliga 100 ming tonna polivinilxlorid, 75 ming tonna kaustik soda, 300 ming tonna metanol tayyorlanadi. 900 dan ortiq yangi ish o'rni yaratiladi. Mahsulotning 50 foizdan ortig'i eksport qilinadi. Korxonani joriy yilning sentabr oyida foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

"Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatining mavjud energiya sarfi yuqori bo'lgan ammiak ishlab chiqarish 1-2-navbatlari ekspluatatsiyadan chiqarilmoqda. Xususan, ammiak va karbamid ishlab chiqarish bo'yicha umumiy qiymati 985 million dollardan ziyod bo'lgan loyiha amalga oshirilmoqda. Qurilish ishlari yakunlangach, bu yerda yiliga 660 ming tonna ammiak, shuningdek, 577,5 ming tonna karbamid olish, ulardan tayyorlanadigan mineral o'g'itlar turini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. 500 ga yaqin ish o'rni yaratiladi.

Yaponiyalik hamkorlar – "Mitsubishi Heavy Industries, Ltd" va "Mitsubishi Corporation" kompaniyalari bilan birgalikda barpo etilayotgan majmuani 2020 yilda foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan.

Aksiyadorlik jamiyatining azot ishlab chiqarish bo'yicha eski 1-2- navbatlari ham ekspluatatsiyadan chiqarilmoqda. Ya'ni bu yerdajoriy yil yana bir loyiha – azot kislotasi ishlab chiqarish majmuasi qurilishini nihoyasiga yetkazish rejalashtirilgan. 216,6 million AQSH dollariga teng bu ishlab chiqarish obyekti Shveysariyaning "CASALE SA" kompaniyasi tomonidan bunyod etilmoqda. Bu yerda yiliga 500 ming tonna mahsulot tayyorlash mumkin bo'ladi, 120 dan ortiq yangi ish o'rni yaratiladi.

Bugungi kunda bu yerda o'rnatiladigan zamonaviy uskunalarni boshqarish uchun yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalarida muhandis-texnolog, mexanik, energetik, iqtisodchi va dasturchilar tayyorlanyapti. Mutaxassislar mamlakatimiz va xorijdagi korxonalarda malaka oshirmoqda.

Prezidentimiz zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalar bilan jihozlanadigan majmualarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, tannarxini tushirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash muhim omil bo'lishini qayd etdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu kabi zamonaviy korxonalarni barpo etishga nafaqat mintaqa mamlakatlari, balki uncha-muncha rivojlangan davlatlar ham jur'at etolmaydi. Barpo etilayotgan ushbu korxonalar ko'plab ish o'rni yaratilishi bilan birga, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy viloyatida mamlakatimiz ehtiyoji uchun juda muhim bo'lgan yirik korxonalar bunyod etayapmiz. Eng zamonaviy uskunar o'rnatiladigan bu korxonalarda ishlaydigan kadrlar ham shunga munosib bo'lishi kerak. Buning uchun mamlakatimizda jahon talablariga javob beradigan malakali mutaxassislar tayyorlashning izchil tizimini yo'lga qo'yish, yoshlarni xorijda o'qitish kerak, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu yerda Navoiy viloyatida mamlakatimizning Amerika Qo'shma Shtatlari, Birlashgan Arab Amirliklari va Ukrainadagi elchixonalari ko'magida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti o'tkazildi. Prezidentga viloyatda sanoatni rivojlantirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va boshqa tarmoqlarda bajarilishi ko'zda tutilgan loyihalar haqida ham ma'lumot berildi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi, xususan, baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Baliqchilik xo'jaliklarini yanada rivojlantirish, yangi inkubatsiya sexlari tashkil etish, ozuqa bazasini mustahkamlash, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, baliqni qayta ishlash va eksportga yo'naltirish tizimini takomillashtirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2018 yil 6

noyabrdagi "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazkur ishlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim omil bo'lmoqda.

Sohaga qaratilayotgan e'tibor tufayli 2018 yil dekabr oyida Karmana tumanida "Export Fish Product" mas'uliyati cheklangan jamiyati ish boshladi. Amalga oshirilgan loyihaning umumiy qiymati 37 milliard so'm bo'lib, uning 30 milliard so'mi bank krediti, 7 milliard so'mi korxona mablag'idir. Bu yerda usti yopiq suv havzalari, 500 tonna sig'imga ega muzlatkichli omborxona, shuningdek, aholining hordiq chiqarishi, ya'ni shu yerning o'zida baliq tutib iste'mol qilishi uchun umumiy ovqatlanish shoxobchasi va sayilgoh qurilgan. 50 ish o'rni yaratilgan.

Korxona to'liq quvvat bilan ish boshlagach, yiliga 500 tonna baliq, 100 million dona baliq chavog'i yetishtiriladi. Kelajakda korxona 800 ta aholi xonadonida ham intensiv usulda baliq boqishni rejalashtirgan. Natijada 900 ga yaqin kishi ish bilan ta'minlanadi. Korxona tasarrufidagi 2 ming gektarlik ko'lda yetishtiriladigan baliq klaster usulida qayta ishlanib, undan baliq uni, moyi, filesi, konservasi, yarim tayyor holatda baliq kotleti va dudlangan baliq tayyorlanadi. 600 tonna tayyor mahsulot eksport qilinadi.

Prezidentimiz Navoiy viloyatiga tashrifi doirasida mazkur korxona faoliyati bilan ham tanishdi.

Mahsulot ko'p bo'lsa, raqobat bo'ladi, raqobat bo'lsa, sifat oshadi, sifat yuqori bo'lsa, eksport samarali bo'ladi. Oddiy odamlarni boy qilsak, davlat ham boy bo'ladi, dedi davlatimiz rahbari.

Shu yerning o'zida viloyatda qishloq xo'jaligining turli tarmoqlari bo'yicha agroklastlar tashkil etish, yaylovlar holatini yaxshilash loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Masalan, "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasida "Navoiy ishonch gilamlari" MCHJ tomonidan qishloq xo'jaligi ekinlarini sun'iy yomg'ir usulida sug'orish uskunalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Natijada suv, yoqilg'i, mineral o'g'itlar sarfi kamayadi. Umumiy qiymati 41 milliard so'm bo'lgan ushbu loyiha tufayli 50 kishining bandligi ta'minlanadi.

Shuningdek, viloyatda chorvachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Konimex tumanida "Konimex texno oasis" MCHJ tomonidan tuyachilik va yilqichilikni rivojlantirish loyihasi hayotga tatbiq etiladi. Xorijdan 900 bosh tuya, yilqi, naslli qo'y keltiriladi. Chavandozlik maktabi tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari baliq yetishtirishga ixtisoslashgan shunday korxonalarni, chorvachilik xo'jaliklari sonini ko'paytirish, yer unumdorligini hamda tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berdi.

